

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING BOSHQARUVCHILIK QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTRISH USULLARI

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 32-son DMTT direktori  
Sadriyeva Sarvinoz Botir qizi

**Annatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar xodimlarning boshqaruvchilik qobiliyatini takomillashtirish omillari va rahbarlik xususiyatlari haqida aytib o'tilgan.

**Аннотация:** в данной статье обозначены факторы и лидерские характеристики повышения управленческих навыков дошкольной образовательной организации.

**Annotation:** in this article, the factors and leadership characteristics of preschool educational organization management skills improvement factors are mentioned.

**Kalit so'zlar:** xodimlar, rahbar, boshqaruv, takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshqaruv faoliyati.

**Ключевые слова:** коллектив, руководитель, менеджмент, совершенствование, организация дошкольного образования, управленческая деятельность.

**Key words:** staff, leader, management, improvement, preschool education organization, management activity.

**Boshqaruvchanlik** – bu tashkilot yoki tizimning belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, jarayonlarni samarali nazorat qilish va boshqarish imkoniyatini ifodalaydi. Bu tushuncha, ayniqsa, ta'lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning muvaffaqiyati rahbariyatning boshqaruv qobiliyati va tizimning boshqaruvchanligiga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining boshqaruvchilik qobiliyatlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon rahbarlarning zamonaviy boshqaruv usullarini o'zlashtirishi, pedagogik va psixologik bilimlarini chuqurlashtirishi hamda ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu maqsadga erishish uchun tavsiya etiladigan asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

### **Rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish**

- **Liderlik qobiliyatlari:** Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishi, jamoani birlashtirishi va motivatsiya beruvchi rahbar bo'lishi kerak.

• **Muammolarni hal qilish ko‘nikmalari:** Rahbarlar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va ularga yechim topishda malakali bo‘lishi zarur.

• **Inson resurslarini boshqarish:** Xodimlar bilan samarali ishlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish usullarini bilishi kerak.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshqaruvchanlikni ta‘minlash uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

#### *Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni oshirish*

➤ **Doimiy malaka oshirish kurslari:** Rahbarlar uchun maxsus boshqaruv, pedagogika va psixologiya bo‘yicha o‘quv dasturlarida qatnashish.

➤ **Xalqaro tajriba almashinuvi:** Maktabgacha ta‘limning ilg‘or tizimlari bilan tanishish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish.

➤ **O‘z-o‘zini rivojlantirish:** Kitoblar o‘qish, seminar va vebinarlarni kuzatish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini o‘rganish.

#### *Nazorat va monitoring tizimi*

➤ Jarayonlarni muntazam ravishda kuzatish va baholash mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

➤ Natijalarga asoslangan holda qarorlarni moslashtirish.

#### *Xodimlarning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash*

➤ Jamoaning har bir a‘zosining o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish.

➤ Doimiy o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish.

Hozirgi sharoitda maktabgacha ta‘lim tizimi rahbarlari, mutaxassislarining samarali faoliyat yuritishlari uchun boshqaruvni va ushbu idoralar xodimlari mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslarini bilish g‘oyat muhimdir. Shu o‘rinda yana bir karra rahbarlik mas‘uliyati haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Chunki bugun islohotning qay darajada amalga oshishi rahbarlarning dunyoqarashiga, halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor bo‘lishiga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o‘yin hisoblanishi; maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta‘minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

#### *Zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash*

➤ **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):** AKT vositalaridan samarali foydalanish, ta'lim jarayonlarini boshqarish uchun maxsus dasturlarni qo'llash.

➤ **Innovatsion metodlar:** Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda yangi yondashuvlarni (masalan, modellar va tizimlarni) joriy qilish.

*Rahbarning yoshi haqida gapirar ekanmiz, nafaqat uning biologik jihatlari, balki, ijtimoiy jihatlari, hayotiy tajribasini ham nazarda tutish kerak. Ammo, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyaning kirib kelishi ularni o'zlashtirishda ma'lum mahoratni talab qiladi. Baxtga qarshi, hozirgacha kompyuterda ishlashni o'rgana olmayotgan katta yoshli rahbarlarni uchratish qiyin emas. Shu jihatdan olganda, yosh rahbar ko'pincha tashkilotga ilg'or texnologiya va tezkorlik olib kiruvchi omil sifatida qabul qilinadi.*

Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

***Boshqaruv faoliyatida boshqaruvchi shaxs kasbiy sifatlar bilan shaxsiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim. Masalan:***

- ✚ Maqsadni aniq belgilay olishi;
- ✚ Boshqalarni diqqat bilan tinglashi;
- ✚ Xolisona baholay olishlik, samimiy va bag'rikenglik;
- ✚ Chiqaradigan qarorlari odilona bo'lishi va shu orqali xodimlarni joy-joyiga qo'ya olishi;
- ✚ O'z imkoniyatlari va xodimlarning imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
- ✚ Muloqotda aniq va lo'nda so'lay olishi;



Boshliq sifatida madaniyatli bo‘lishi va buni muomalasida, boshqalar bilan bo‘ladigan kundalik muloqotlarda ko‘rinishi lozim. Rahbarning muomala madaniyati: o‘z o‘rnida, joyida, aniq, tiniq, qisqa, lo‘nda, samimiy so‘zlashi va shu bilan birga suhbatdoshni tinglay olish qobiliyatidan iborat bo‘lishi kerak. Ko‘p hollarda rahbar bilan xodimlar o‘rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlar tinglay olmaslik yoki tushuna olmaslikdan kelib chiqadi. Boshqalarning o‘rniga o‘zini qo‘yish, uning his-kechinmalarini tushunish, empatiya (hamdardlik) hissi, so‘zlashuvlarda sabr-toqatlilik muloqot madaniyatining muhim tomoni ekanligi ma‘lumdir.

**Xulosa shuki,** Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbar xodimlarining boshqaruvchilik qobiliyatlarini takomillashtirish zamonaviy ta‘lim tizimini samarali boshqarishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu jarayon rahbarlarning professional va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlab, tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir qiladi. Rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik va psixologik bilimlarini chuqurlashtirish, shuningdek, doimiy malaka oshirish va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish ushbu yo‘nalishda muhim qadamlar hisoblanadi. Shu asosda takomillashgan boshqaruv tizimi ta‘lim sifatini oshirish, bolalar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish va ta‘lim tashkilotlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Natijada, maktabgacha ta‘lim tizimi ijtimoiy va pedagogik vazifalarini to‘liqroq amalga oshirishga erishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 aprelda PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 mayda PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma‘lumotlar milliy bazasi sayti.